

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDA DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI RIVOJLANISHI VA SHAKLLANISHINING ASOSIY OMILLARI

Abduraxmanova Gulchehra Kuanishevna

*Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standartlari rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillari, Davlat ta'lim standartning mezon va parametrlarini ta'lim sohalarida belgilab qo'yilgan ta'lim standartining ko'rsatkichlari haqida batafsil bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** davlat ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, mantiqiy tafakkur, o'quv predmeti, konseptual asos.*

Kirish: Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining muhim malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini - o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shuningdek gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishini ta'minlaydi, hamda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari takomillashtiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z- o'zini anglash salohiyatini rivojlantirishga jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarni his qila olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya etishga o'rgatadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim standarti yordamida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun kerak bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi. Boshlang'ich ta'lim davlat standarti o'quv predmeti bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilandi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatkichlari 7-11 yoshdagi bolalarning shakllanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqqan tarzda ijtimoiy talab taqozo etgan ta'lim mohiyatining miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mohiyatini ko'lamini chegaralash, ta'lim sohasini integratsiyalash imkonini beradi. Davlat ta'lim standartini belgilash boshlang'ich ta'lim mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizatsiyalashni nazarda tutadi.

Natijalar: Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarni baholash mezonlarni belgilashga imkon beradi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan tarzda ayni shu boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma va malaka hosil etishga qaratilgan ta'lim sohasining mujassamlashgan predmetlari tashkil qiladi. Boshlang'ich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart predmetlari mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashishi shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda surdopedagogika, psixologik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlang'ich ta'lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

Muhokama: Boshlang'ich ta'lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan belgilangan talabda ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik,

uygʻunlik toʻla taʼminlangan boʻlmogʻi zarur. Shu tomondan boshlangʻich taʼlim standartini belgilash taʼlim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mohiyatini modernizatsiyalash, boshlangʻich taʼlim jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani qoʻllash imkonini beradi. Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar shakllanib boruvchi taʼlim tamoyillariga asoslanib jahon tajribasiga tayangan holda Oʻzbekiston Respublikasidagi boshlangʻich taʼlim tayanch oʻquv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat taʼlimi sohalari kiritiladi.

Xulosa: Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, boshlangʻich taʼlim standarti taʼlim sohalariga qoʻyilgan standart koʻrsatkichlarini mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini taʼlim sohalarida belgilab qoʻyilgan taʼlim standartining koʻrsatkichlari tashkil qiladi. Taʼlim sohalari boʻyicha taʼlim natijasining sifati asosli koʻrsatkichlarga asoslangan tarzda aniqlanadi. Bu oʻrinda belgilab qoʻyilgan koʻrsatkichlar umumlashtiriladi, shuningdek aniq oʻlchov birliklarida ifodalanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida taʼlim samaradorligini oshirish yoʻllari. – Toshkent 2004.
2. T.X.Berdiyeva. Axborot kontekstida taʼlimning yangi qadriyatlari ijtimoiy jamiyat / T. X. Berdiyeva // Taʼlimdagi innovatsiyalar. - 2005.
3. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlangʻich taʼlimning integratsiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.
4. A.M. Novikov. Tajriba ishlarini tashkil etish taʼlim muassasasining bazasi / A.M. Novikov // Qoʻshimcha rasm sarlavha. - 2002.
5. Yoʻldoshev J.G '. Yangi pedagogik texnologiya yoʻnalishlari, muammolari , yechimlari // Xalq taʼlimi, 2001.